

KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINING MAZMUNI, TURLARI VA ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI

Esonov Baxtiyorjon Baxodirjon o'g'li

Andijon Davlat Texnika Instituti

Buxgalteriya hisobi va auditi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy mazmuni, ularning tasnifi hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilish tartibi yoritilgan. Shuningdek, xarajatlarni guruhlashning ilmiy asoslari va ularni Buxgalteriya hisobi milliy standartlari talablariga muvofiq hisobga olish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri tasniflash va schyotlar tizimida aks ettirish korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar, bevosita xarajatlar, bilvosita xarajatlar, doimiy xarajatlar, o'zgaruvchan xarajatlar, BHMS, schyotlar tizimi, kalkulyatsiya.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonada faoliyatining samaradorligi ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri shakllantirish va boshqarish darajasiga bevosita bog'liqdir. Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxining asosini tashkil etib, foyda miqdori, rentabellik darajasi va narx siyosatini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Shu sababli ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy mazmunini aniqlash, ularni ilmiy asosda tasniflash va buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari - mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida sarflangan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning pul ifodasidir. Ular ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan barcha iqtisodiy resurslarni o'z ichiga oladi va mahsulot tannarxini shakllantiradi.

Tannarx - bu mahsulotni yaratish uchun ketgan jami xarajatlar yig'indisidir. Tannarx qanchalik past bo'lsa, korxonada shunchalik ko'proq foyda olish yoki bozorda raqobatbardosh narx belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xarajatlar foydani aniqlashda ham asosiy omil hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy natijasi tushum va xarajatlar o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi. Agar xarajatlar asossiz oshib ketsa, foyda kamayadi yoki zarar yuzaga keladi. Shuning uchun xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish xarajatlari narx belgilash jarayoniga ham bevosita ta'sir qiladi. Mahsulot narxi odatda uning tannarxiga ma'lum miqdorda foyda qo'shish orqali shakllantiriladi. Xarajatlarni chuqur tahlil qilish korxonaga bozorda mos va raqobatbardosh narx siyosatini yuritish imkonini beradi.

Bundan tashqari, xarajatlar resurslardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Xom ashyo, mehnat va asosiy vositalardan oqilona foydalanish xarajatlarni kamaytiradi va ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi. Xarajatlar tahlili orqali ortiqcha sarf-xarajatlar, isrofgarchilik yoki ichki zaxiralar aniqlanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Kelgusidagi ishlab chiqarish hajmini belgilash, byudjet tuzish, investitsiya loyihalarini baholash kabi jarayonlar xarajatlar ma'lumotlariga asoslanadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan ishlab chiqarish xarajatlari quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- resurslarning iste'mol qilinishi;
- qiymat yaratish jarayoni bilan bog'liqligi;
- moliyaviy natijaga ta'sir etishi;
- mahsulot tannarxining tarkibiy elementi hisoblanishi.

Xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va nazorat qilish korxonada moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari bir necha mezonlarga ko'ra tasniflanadi.

1. Iqtisodiy elementlari bo'yicha. Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy elementlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Bunga moddiy xarajatlar (xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya), mehnatga haq to'lash xarajatlari, ijtimoiy ajratmalar, asosiy vositalar amortizatsiyasi hamda boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi.

№	Xarajat elementi	Mazmuni
1	Moddiy xarajatlar	Xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya
2	Mehnatga haq to'lash	Ishchilar ish haqi
3	Ijtimoiy ajratmalar	Majburiy sug'urta ajratmalari
4	Amortizatsiya	Asosiy vositalar eskirishi
5	Boshqa xarajatlar	Ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa sarflar

Mazkur tasnif xarajatlarning iqtisodiy mazmunini ko'rsatadi va korxonada resurslari tarkibini tahlil qilish imkonini beradi.

2. Kalkulyatsiya moddalari bo'yicha xarajatlar ajratiladi. Bu usul mahsulot tannarxini hisoblashda qo'llaniladi. Unga xom ashyo va materiallar, asosiy ish haqi, qo'shimcha ish

haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, umumishlab chiqarish xarajatlari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari kiradi. Bu tasnif mahsulot birligi tannarxini aniqlashga xizmat qiladi.

3. Ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligiga ko'ra. Xarajatlar o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'linadi. O'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bevosita bog'liq bo'lib, mahsulot ko'payishi bilan ortadi (masalan, xom ashyo). Doimiy xarajatlar esa ishlab chiqarish hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas va ma'lum davr davomida o'zgarmay qoladi (masalan, ijara haqi, boshqaruv xodimlari ish haqi).

Turi	Tavsifi
Doimiy xarajatlar	Hajmdan qat'i nazar o'zgarmaydi
O'zgaruvchan xarajatlar	Hajm oshishi bilan ortadi
Aralash xarajatlar	Qisman doimiy, qisman o'zgaruvchan

Mazkur tasnif boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

4. Mahsulot tannarxiga qo'shilish usuliga ko'ra xarajatlar bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi. Bevosita xarajatlar aniq bir mahsulot turiga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi (xom ashyo, asosiy ish haqi). Bilvosita xarajatlar esa bir nechta mahsulot turiga tegishli bo'lib, ularni maxsus usullar orqali taqsimlash talab etiladi (umumishlab chiqarish xarajatlari).

Turi	Tavsifi
Bevosita xarajatlar	Mahsulotga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanadi
Bilvosita xarajatlar	Bir necha mahsulotga taqsimlanadi

Bilvosita xarajatlarni asosli taqsimlash mahsulot tannarxining aniqligini ta'minlaydi.

Shuningdek, xarajatlar ishlab chiqarish jarayonidagi o'rniga ko'ra asosiy va yordamchi xarajatlarga ham bo'linadi. Asosiy xarajatlar mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lsa, yordamchi xarajatlar ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri tasniflash korxonada uchun tannarxni aniq hisoblash, foydani oshirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobi milliy standartlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xarajatlar yuzaga kelgan davrida tan olinadi va tegishli schyotlarning debetida jamlanadi.

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini tashkil qilish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Xarajatlarni dastlabki hujjatlar asosida rasmiylashtirish.
2. Xarajatlarni iqtisodiy elementlar va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha guruhlash.
3. Xarajatlarni tegishli schyotlarda jamlash.
4. Bilvosita xarajatlarni taqsimlash.
5. Mahsulot tannarxini aniqlash.
6. Tayyor mahsulotni omborga qabul qilish.

Mazkur bosqichlarning izchil amalga oshirilishi hisobning to'g'ri yuritilishini ta'minlaydi.

Schyot raqami	Nomi	Mazmuni
2010	Asosiy ishlab chiqarish	Asosiy mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish xarajatlari
2310	Yordamchi ishlab chiqarish	Asosiy ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi yordamchi bo'linmalar xarajatlari
2510	Umumishlab chiqarish	Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq umumiy (bilvosita) xarajatlar
2710	Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar	Ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar xarajatlari

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari schyotlari.

Debet	Kredit	Mazmuni
2010, 2310	1010	Materiallar ishlab chiqarishga berildi
2010, 2310, 2510	6710	Ishchilarga ish haqi hisoblandi
2010, 2310, 2510, 2710	6520	Ijtimoiy ajratmalar hisoblandi
2010, 2310, 2510, 2710	0210	Amortizatsiya hisoblandi
2010	2310	Yordamchi ishlab chiqarishdan xarajatlar o'tkazildi
2010	2510	Umumishlab chiqarish xarajatlari taqsimlandi
2810	2010	Tayyor mahsulot omborga qabul qilindi
2510, 2710	6010	Kommunal xizmatlar

Debet	Kredit	Mazmuni
9430 (yoki tegishli schyot)	2710	Xarajatlarni qoplash yoki hisobdan chiqarish

Ishlab chiqarish xarajatlarini schyotlarda aks ettirish.

Ishlab chiqarish xarajatlarini to'g'ri tashkil etish:

- mahsulot tannarxining real shakllanishini ta'minlaydi;
- foyda miqdorini aniq hisoblash imkonini beradi;
- ortiqcha xarajatlarni aniqlashga yordam beradi;
- ichki nazorat tizimini mustahkamlaydi;
- audit jarayonini soddalashtiradi.

Xarajatlarni noto'g'ri schyotlarda aks ettirish mahsulot tannarxining buzilishiga va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish xarajatlari korxonada faoliyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ularning o'rganilishi va tahlili mahsulot tannarxini aniqlash, korxonada foydasini hisoblash hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish xarajatlari iqtisodiy resurslar - xom ashyo, materiallar, mehnat, energiya va asosiy vositalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan xarajatlarning puldagi ifodasi sifatida tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, ularning mazmunini to'liq anglash korxonada resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun muhimdir.

Ishlab chiqarish xarajatlarini turli mezonlar asosida tasniflash ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Xususan, xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha (moddiy xarajatlar, ish haqi, ijtimoiy ajratmalar, amortizatsiya va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari), kalkulyatsiya moddalari bo'yicha (xom ashyo, asosiy va qo'shimcha ish haqi, yordamchi va umumishlab chiqarish xarajatlari), shuningdek, ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligiga ko'ra (doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar), hamda mahsulot tannarxiga qo'shilish usuliga ko'ra (bevosita va bilvosita xarajatlar) tasniflash mumkin. Bu turli xil tasniflar korxonada ichki nazoratini kuchaytirish, xarajatlarni aniq rejalashtirish va mahsulot tannarxini hisoblashda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya hisobida tizimli va tartibli aks ettirish korxonada moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi va oshkoraligini ta'minlaydi. Xarajatlarning tegishli schyotlarda to'planishi, davr oxirida tegishli ishlab chiqarish schyotlariga taqsimlanishi hamda mahsulot tannarxiga kiritilishi hisob jarayonining muhim bosqichlaridan biridir. Masalan, asosiy ishlab chiqarish schyotiga (2010) bevosita xarajatlar va yordamchi ishlab chiqarish schyotidan (2310) ham xarajatlar o'tkaziladi, umumishlab chiqarish xarajatlari (2510) esa maxsus taqsimlash orqali mahsulot tannarxiga qo'shiladi, xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalarining xarajatlari (2710) esa tegishli hisob-kitoblar asosida

qoplab chiqiladi. Bu jarayonlarning to‘g‘ri tashkil etilishi korxonada faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va raqobatbardosh mahsulot tannarxini shakllantirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish korxonada strategiyasini shakllantirish, moliyaviy rejalashtirish va investitsiya loyihalarini baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarning aniq va tizimli qayd etilishi, ularni turli mezonlar bo‘yicha tasniflash va tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonida ortiqcha sarf-xarajatlarni aniqlash va kamaytirishga imkon yaratadi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. - 2023 yil (yangi tahrir).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlarini takomillashtirish va mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. - Toshkent, 2022.
3. Abdullayev A. X. Korxonada iqtisodiyoti. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Karimov A. Ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat resurslari boshqaruvi. - Toshkent: TDIU, 2022.
5. Rasulov N. M. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va ularni baholash usullari. - Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2018.
6. Bobokhonov, A. R. Tovar va xizmat ishlab chiqarishda tannarxni hisoblash. Toshkent: Moliyaviy nazorat nashriyoti, 2022.
7. Sharipov, M. J. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblash va tahlil qilish. Toshkent: Iqtisodiyot va moliya, 2021.